

Texnologiya darslarida xavfsizlik texnikasi



Texnologiya darslarida siz kesasiz, qirqasiz, yopishtirasiz, qurasiz va yasaysiz. Bularning hammasi qiziqarli va xavfsiz bo'lishi uchun esa **muhim qoidalarni** yodda tutishingiz kerak. Ularni eslab qoling.

Ish o'ringizni tayyorlab oling:

- partani iflos qilmaslik uchun uning ustiga qog'oz yoki kleyonka to'shang;
- materiallaringizni tartib bilan joylashtiring;
- ortiqcha narsalarni portfelingizga solib qo'ying.



Fartuk va yengchani kiyib oling:

ular kiyimlaringizni yelim, bo'yoq va plastilindan himoya qiladi.

Mashg'ulot davomida:

- o'tirgan holda ishlang;
- to'g'ri o'tiring;
- yoningizdagilarga xalaqit bermang;
- o'qituvchining ruxsatisiz o'ringizdan turmang;

- o'qituvchingizni diqqat bilan tinglang;
- barcha ishlarni yo'riqnoma bo'yicha bajaring;
- agar yordam kerak bo'lsa, qo'lingizni ko'taring.



Qaychi bilan ishlashda e'tiborli bo'ling:

- qaychini faqat halqalaridan ushlang;
- qaychini o'ynamang va u yoqdan bu yoqqa silkitmang;
- qaychini g'ilofida saqlang;
- uni boshqalarga halqali tomoni bilan uzating.

**Yelimdan ehtiyotkorlik bilan foydalaning:**

- yelimni yupqa qilib surting;
- yuzingizga olib bormang;
- ishni yakunlagandan keyin yelim idishining qopqog'ini yopib qo'ying.

**Plastilin bilan ishlashda ozodalikka rioya qiling:**

- maxsus taglik yoki taxtacha ustida ishlang;
- plastilinni parta ustiga surkab tashlamang;
- ishlab bo'lganingizdan keyin plastilin qoldiqlarini yana qutichaga joylab qo'ying;
- qo'llaringizni qog'oz sochiq bilan yaxshilab arting, keyin iliq suvda sovunlab yuving.

**Ishlab bo'lganingizdan keyin atrofingizni tartibga keltiring:**

- ish o'rningizni yig'ishtiring;
- qo'llaringizni yuving.



Yodda tuting! Texnologiya darslarida xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish, ish o'rnini toza tutish, asbob-uskunalar va materiallarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish hamda ish bosqichlarini rejalashtirish juda muhim.

Ish qurollari va tabiiy materiallar bilan tanishuv



Bugun biz **musavvir** va **mohir ustaning** ijodxonasiga sayohat qilamiz. Bu ijodxonada bizning yordamchilarimiz – **ish qurollari** yashaydi. Ular bizga **rasm chizish**, **shakllar yasash**, **qirqish** va **qo'lda chiroyli narsalar tayyorlashda** yordam beradi.

Ish qurollari bilan tanishuv

Qaychi qog'oz va kartonni ehtiyotkorlik bilan qirqishga yordam beradi. Uni doimo g'ilofda saqlash kerak.



Yelim detallarni bir-biriga yopishtiradi. Uni yupqa qilib surtish lozim.



Qalamlar rasm chizish, chiziq tortish hamda **rasmlarning xomaki shaklini belgilab olish** uchun kerak.



Bo'yoqlar rasmni **yorqin** va **rang-barang** qiladi.



Mo'yqalamlar bo'yoqlar bilan ishlashda yordam beradi. Ishlatib bo'lgandan keyin ularni suvda **yuvib**, **quritib** qo'yish kerak.



Plastilin taxtachasi partani iflos qilmasdan, **saranjom-sarishta ishlash** uchun kerak.



Plastilin – **shakllar yasash** uchun mo'ljallangan yumshoq material.



Steklar maxsus tayoqchalar bo'lib, ular yordamida **plastilinni kesish**, **naqshlar solish** va **detallarni ajratish** mumkin.



Karton – **tabriknomalar va turli buyumlar** yasash uchun ishlatiladigan qalin qog'oz.



Paxta yumshoq material bo'lib, undan **bulut**, **qor** va **hayvon juni** kabilar yasaladi.



Xavfsizlik qoidalar:

- **qaychi** bilan ehtiyot bo'lib ishlang;
- **yelim** va **bo'yoqlarni** tatib ko'rmang;
- dars tugagach, barcha **anjomlarni** joy-joyiga qo'ying.

**Tabiiy materiallar**

Qo'lda turli narsalar yasashda **tabiat tuhfaridan** foydalanamiz:



Bulardan **hayvonchalar**, **gullar**, **uychalar**, **rasmlar** va **applikatsiyalar** yasash mumkin. Tabiiy materiallarni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan yig'ish va ularni ehtiyot qilish muhim.



Tabiiy materiallar qanday tayyorlanadi?

Sindirmasdan,
ehtiyotlab yig'iladi.



Kirlari tozalab yuviladi.



Qo'lsochiq ustida
quritiladi.



Quti yoki paketga
solib qo'yiladi.

Bugun siz:

- **tabiiy materiallar** bilan tanishdingiz;
- ularni **to'g'ri yig'ish**, **yuvish** va **saqlashni** o'rgandingiz.

